

**MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALARNI LOGOPEDIK O‘QITISHDA INNOVATSION
YONDASHUVNING O‘RNI.**

Eshmurodova Madina Xolmon qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, magistr

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashg‘ulotlar jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar ni logopedik o‘qitishda innovatsion yondashuvning o‘rni to‘g‘risidagi masalalar o‘rganilgan. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishida logopedik mashg‘ulotlarning ahamiyati va bu sohada innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali erishiladigan natijalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: logopediya, maktabgacha yosh, innovatsion yondashuv, multimodal mashg‘ulotlar, raqamlı texnologiya, fonematik rivojlanish, nutqiy nuqson.

O‘sib kelayotgan yoshlар орасида nutqida kamchiliklari bo‘lgan bolalar mavjud bo‘lib, ularning sifatli ta‘limga jalb etilishi borasida ham qator ijobjiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi kunda turli nutq kamchiligidagi ega bo‘lgan bolalarning jamiyatning turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarida faol ishtirok etishlari, farovon turmush kechirishlari hamda turli hayotiy vaziyatlarga samarali ijtimoiy moslashuvini ta‘minlashda, ularning maktabgacha bo‘lgan davrning ahamiyati kattaligi bois, aynan maktabgacha maxsus ta‘limni isloh qilish masalasi ham maxsus pedagogika va xalq ta‘limi tizimi olidida turgan dolzarb vazifalardan sanalmoqda. Nogironligi bo‘lgan bolalarning jamiyatning kundalik hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta‘minlovchi maxsus va inklyuziv ta‘lim tizimi mazmuni va shakllari takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli, 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi halq ta‘limi tizimining 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyaning tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF5712 sonli farmonlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmu-nida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta‘lim xizmatining moslashgan turlarini, differensial yondashuvlarga asoslangan tizimni joriy etish belgilab qo‘yilgan. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga alohida e‘tibor berilgan. Natijada imkoniyati cheklangan bolalarni ilk davrdan tashxis qilish, tashxis natijalari asosida mos ta‘limga jalb etish, sifatli ta‘lim olishini ta‘minlash, ijtimoiy hayotga moslashuvini ta‘minlashga yo‘naltirilgan kompleks ta‘sirni o‘z vaqtida maqsadli amalga oshirish uchun zaruriy infratuzilma hamda kadrlar masalasini hal etish imkoniyati kengaydi. Sog‘lom bolalar kabi imkoniyati cheklangan bolalarning ta‘limga jalb etilgan ilk davrdan, ya‘ni maktabgacha ta‘lim tashkilotida tashkil etilgan pedagogik jarayon davomida ijtimoiylashish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalar hamda elementar

kompetensiyalar bilan qurollantirishning imkoniyat-larini asoslab berish hamda ularni tibbiy-pedagogik jihatdan o‘rganish usullarini takomillashtirish maqsadida ushbu o‘quv qo‘llanmani hozirgi kunning muhim ada-biyotlaridan biridir.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida logopedik xizmat ko‘rsatish jarayoni yangicha yondashuv va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni talab qilmoqda. Logopedik ta’sirning muvaffaqiyatlari shart sharoitlari talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yaxshi sharoitlar yaratib beradi: logopedning bola bilan emotsiyal kontakti; mashg‘ulotlarni qiziqarli shaklda tashkil qilish va charchashga yo‘l qo‘ymaydigan ish tizimida olib borish asosiy ro‘l o‘ynaydi. O‘sib kelayotgan yoshlar orasida nutqida kamchiliklari bo‘lgan bolalar mavjud bo‘lib, ularning sifatli ta‘limga jalb etilishi borasida ham qator ijobjiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy, aqliy va emotsiyal rivoj-lanishida eng muhim bosqich bo‘lib, aynan shu davrda nutq buzilishlarini barvaqt aniqlash va samarali korreksiya qilish imkoniyati yuqoridir. Zamonaviy logopediya sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), interfaol o‘yinlar, multimedya vositalari, neyropsixologik metodlar va gamifikatsiya elementlarini qo‘llash orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sifatini oshirish va maktabgacha ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha qabul qilgan qarorlari bu borada muhim turki bo‘lib xizmat qilmoqda. Logopediya fanining asosiy maqsad va vazifalarini yoritib, yosh avlod tarbiyasida logopedlarning o‘rnini tahlil qiladi. U innovatsion yondashuvlar, jumladan, interaktiv texnologiyalar va zamonaviy metodikalarni qo‘llash orqali logopedik xizmatlarning samaradorligini darajada ortgani amaliy tajriba bilan isbotlangan. Shu bois, maktabgacha yoshdagagi bolalarni logopedik o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni va ahamiyatini ilmiy - metodik asosda chuqur o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.



XXI asrda ta’lim tizimining raqamlashtirilishi logopedik faoliyatda ham innovatsion yondashuvlarni joriy qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etishda yoshga xos yondashuvlar va metodlar hamda yangi texnologiyalarni logopedik amaliyotga joriy etish afzallikkarii nazarda tutiladi. Ayniqsa, maktabgacha

yoshdagи bolalarda nutqiy rivojlanishdagi muammolar erta bosqichda aniqlanib, malakali logoped tomonidan to‘g‘ri yo‘naltirilsa, bolaning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatlari sezilarli darajada oshadi. Mavzuning dolzarbli shundaki, hozirgi kunda bolalarning nutqiy faoliyatida pasayish, fonematik eshituvning zaiflashuvi va noto‘g‘ri talaffuz kabi muammolar ko‘pay-moqda. Shuning uchun logopedik mashg‘ulotlarda zamonaviy, o‘yinli va raqamli texnologiyalarni qo‘llash muhim vazifaga aylangan.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – bolada to‘g‘ri nutq, aniq talaffuz, boy so‘z boyligi va grammatik tuzilmalarini shakllantirishdir. An’anaviy uslublar (*artikul-yatsion mashqlar, she’rlar, rasmlar bilan ishslash*) bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlar — raqamli ilovalar (*Logopediya Mobile, Speech Blubs*), interaktiv doskalar, QR kodli o‘yinlar, video-treninglar katta ahamiyat kasb etmoqda. O‘yinli yondashuv, multimodal ta’lim elementlari (ko‘rish, eshitish, harakat) va bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan topshiriqlar logopedik jarayonni qiziqarli, samarali va individuallashtirilgan holga keltiradi. Bu yondashuv orqali bola o‘rga-nishni emotsiional ijobiy kayfiyatda qabul qiladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Tadqiqot metodologiyasi sifatida O‘zbekiston, Rossiya va xorijiy davlatlar olimlari tomonidan chop etilgan ilmiy adabiyotlar, maqolalar, monografiyalar va darsliklarning tahlili tanlangan. Mashg‘ulotlar jarayonida maktabgacha yoshdagи bolalarni logopedik o‘qitishda innovatsion yondashuvning o‘rni bo‘yicha so‘nggi 10 yil ichida nashr etilgan manbalar o‘rganilgan va tizimlashtirilgan.

Mamatqulova, M. (2021). Logopediya darslarida interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi nazariy jihatdan ochib bergan. Mobil ilovalar va QR kod texnologiyasi asosida mashg‘ulotlar tashkil etilgan. So‘rovnama va kuzatuv metod-lari orqali sifatli ma’lumot to‘plangan. Natijalar deskriptiv statistik usulda tahlil qilingan. Xususan, logopedik mashg‘ulotlarga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqali bolalarning nutqiy muammolarini bartaraf etish samaradorligi sezilarli

Kurganova E.V. (2020) – “Multimediya asosidagi darslar logopediya tizimida” yondashuvi bilan logopedik darslarda audio-video kontent bilan til o‘rgatish samarasini oshirishda bolaning nutq organlariga vizual ta’sir o‘tkazishni joriy etdi. Bu orqali ko‘rish-esitish asosida nutqni tezroq tiklash.

Solieva M. (2020) "Maktabgacha yoshdagи bolalarda logopedik mashg‘ulotlarda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish metodlarini ishlab chiqqan. Logopedik o‘yinlar va dramatik rolli mashg‘ulotlar. Nutqiy muammolar bilan kurashishda 75% hollarda ijobiy natija bergen.

Садрина Т.Н. (2022) "Инновационные подходы в логопедии: теория и практика" yani Sensorli texnologiyalar (*taktil doskalar, QR-kodlar*) va gamifi-katsiya elementlari bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish. Ushbu yondashuv bilan logopedik mashg‘ulotlarning samaradorligi 65-70% gacha oshgani aniqlangan.

Kaderavek, J.N. (2020)"Language Disorders in Children: Fundamental Concepts of Assessment and Intervention" Baholash va aralashuvni integratsiya-lashgan tizimda olib

borish, bola markazida yondashuv (childcentered) ini o‘rgan-gan. Individual yondashuv orqali har bir bolaning nutqiy o‘sishi va korreksiyasi samarali bo‘lgani ko‘rsatilgan.

Rustamova N. (2021) "Nutqiy rivojlanishida sust bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodikasi". O‘yin va harakatli mashqlar orqali nutqiy tahlil va sintez ko‘nikma-larini rivojlantirish orqali 6 oylik amaliyatda bolalarning fonematik eshitish va artikulyatsiyasi yaxshilangan.

Иванова М.П. (2020) "Мультимедийные технологии как средство коррекции речи у детей дошкольного возраста" Ivanova M.P animatsiya, audio-vizual vositalar va interaktiv dasturlar yordamida nutqni korreksiya qilishni ilgari surdi. Bolalarda qiziqish va faollik oshgan, multimedia orqali mashg‘ulot samara-dorligi 75% ga yetgani aniqlangan.

Maktabgacha ta‘lim tizimida logopedik xizmatni tashkil etish va uning inno-vatsion rivojlanish yo‘llari" (2023) O‘zbekistonda logoped mashg‘ulotlarini multimedia, virtual platformalar va mobil ilovalar orqali olib borishni yo‘lga qo‘yan. Innovatsion yondashuvlar logopedik xizmatlarning qamrovini kengay-tirgan va natijadorlikni oshirgan.

Maktabgacha ta‘lim sog‘lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart sharoitlar yaratadi, bolalarni mакtabda muntazam ravishda ta‘lim olishga tayyorlashda ota onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta‘lim bola 6 – 7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta‘lim bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta‘lim tarbiyasiga qo‘llaniladigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, ma‘naviy va intellektual jihatdan mакtabda o‘qishga tayyorlashni nazarda tutatadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotiga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan 3 – 7 yoshdagi bolalarning quyidagi toifalari qabul qilinadi:

1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar (*alaliya, bolalar afaziyasi, rinolaliya, dizarriya, duduqlanish nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar*);
2. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (*1 – 4 guruh karlik va zaif eshituvchi bolalar*);
3. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (*ko‘zi ojizlar, zaif ko‘ruvchi bolalar*);
4. Psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (*psixik rivojlanish ning orqada olishi, psixik nutqiy rivojlanshining orqada qolishi, bolalar autizmi*);
5. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (*aqliy rivojlanishida orqada qolishning yengil darajasi, aqliy rivojlanishida orqada qolishning o‘rta darajasi*);
6. Tayanch harakatlanish a‘zolarida nuqsonlari bo‘lgan bolalar (*ortopedik jarohatlarning asoratlari, idiopatik o‘zgarishlar bo‘yin, ko‘krak, 5 umurtqa*). (11)



Natijalar Va Muhokama

Adabiyotlar tahlili natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarni logopedik o‘qitishda innovatsion yondashuvi uchun samarali bo‘lgan bir qator pedagogik yondashuvlar va interaktiv metodlar aniqlandi.

Birinchidan, logopedik mashg‘ulotlar jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishida sezilarli ijobjiy o‘zgarishlarga olib keladi. Tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv usullar va individual yondashuv asosida tashkil etilgan logopedik mashg‘ulotlar bolalarning nutqiy faolligini oshirish, fonematik eshitish, talaffuz, lug‘aviy zahira va grammatik tuzilmani rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Mamatqulova M (2021) ta’kidlaganidek, *"Logopedik mashg‘ulotlar jarayonida har bir bola shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra yondashuvni talab qiladi. Interfaol metodlar esa bolada nutqqa qiziqish uyg‘otib, uni faol muloqotga jalb etadi. Shu sababli logopedik ishda individual va interaktiv yonda-shuvlar uzviy uyg‘unlikda bo‘lishi lozim."*

Ikkinchidan, Innovatsion yondashuvlar jumlasiga logoritmika, sensorintegrativ texnologiyalar, AR (kengaytirilgan reallik) va VR (virtual reallik), logopedik o‘yinlar, multimediali dasturlar, interaktiv doskalar orqali mashg‘ulotlar olib borish, shuningdek, mobil ilovalar orqali mustahkamlovchi topshiriqlarni kiritish mumkin. Bu usullar bolalarda qiziqish uyg‘otadi, o‘rganishga rag‘batni oshiradi va nutqiy muammolarni bartaraf etishda an‘anaviy usullarga qaraganda tezroq natija beradi. Bu haqida Ivanova M. P ta’kidlashicha, “Logopedik mashg‘ulotlarda multimediali texnologiyalarni qo‘llash bolalarning nutqiy rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Interaktiv dasturlar orqali o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish, motivatsiyasini oshirish va nutqiy faoliyatini faollashtirish mumkin.” Individual yondashuv har bir bolaning nutqiy xususiyatlarini hisobga olib, moslashtirilgan mashg‘ulotlar tashkil etishni nazarda tutadi. Multimediali dasturlar orqali o‘quv materiallarini vizual va audial tarzda taqdim etish bolalarning qiziqishini oshiradi va o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi. Interaktiv o‘yinlar va mashqlar bolalarning faol ishtirokini ta’minlab, nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Uchinchidan, Solieva M (2020) tomonidan taklif etilgan, “O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi) — ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri hisoblanadi.” O‘yinlar bolalarning faolligini oshiradi: O‘yinlar bolani tezkorlikda harakat qilishga, chaqqonlik, topqirlilik, topshiriqlarni aniq va tez bajarishga o‘rgatadi, unda qonun-qoidalarga rioya qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Shaxsiy rivojlanishga yordam beradi: O‘yinlar bolalarda o‘zaro hamkorlik, ijodkorlik, bir - biriga qayg‘urish va o‘zaro hurmat kabi odatlarni rivojlantiradi. Ayniqsa, ularda tashqi dunyon i tasavvur etish, erkin fikr yuritish, emotsiyal faollilik va o‘zaro muloqotga kirishuvchanlik vujudga keladi. Didaktik o‘yinlar ta’lim samaradorligini oshiradi: Didaktik o‘yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi.

Sadrina T. H ta‘kidlaganidek, bolaning sezgi a’zolari orqali nutq faolligini kuchaytirishda relefli harflar, sirtli geometrik shakllar, harorat sezuvchi materiallardan foydalanish sezgi-motor faoliyati orqali artikulyatsion harakatlar aniqroq bajariladi. QR-kodli topshiriqlar esa, mustaqil ishlashni rag‘batlantirish va vizual-audio materiallarni uyg‘unlashtirish, multimodal yondashuv tufayli eslab qolish tezligi ortadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida logopedik xizmatni tashkil etish va uning innovatsion rivojlanish yo‘llari” (2023) maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish sohasida ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish, umumlashtirish va joriy etish hamda sensorli uskunalar, multimedia vositalari hamda o‘yinli interaktiv metodlarni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligi oshadi. Bunda logoped va psixolog hamkorligi asosida kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi nazarda tutilgan.

Kurganova E.V.(2020) ning ta‘kidlashicha, “Multimediya texnologiyalaridan foydalanish logopedik mashg‘ulotlarda bolalarning eshitish, ko‘rish va nutq faoliyatlarini birgalikda faollashtiradi. Bu esa axborotni ko‘p kanalli qabul qilish orqali o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi.”

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarni logopedik o‘qitish murakkab, ammo muhim vazifadir. Adabiyotlat tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda logopedik o‘qitishda quyidagi yindashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Gamifikatsion yondashuv o‘quv jarayoniga qiziqish va ixtiyoriy ishtirokni oshiradi, bu esa bola nutqining faollandashuviga olib keladi;
2. Sensorli texnologiyalar (interaktiv doskalar, QR-kodlar, taktil qurilmalar) orqali ta’lim berish ko‘p kanalli idrokni faollashtiradi, bu esa sezgi orqali nutqiy rivojlanishga kuchli turkti beradi;
3. Multimediali dasturlar bolalarda vizual va eshitish asosidagi nutqni aniqlashtirish, talaffuzni yaxshilash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
4. Mobil logopedik ilovalar orqali esa mashg‘ulotlar mustaqil va individual asosda olib borilishi, bola bilan doimiy muloqotda bo‘lish imkonini yaratadi;

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari esa logopedik jarayonni moslashtirilgan, interaktiv va diagnostik jihatdan kuzatiladigan shaklga keltiradi;

6. O‘yin texnologiyalari nutqiy faoliyat bilan bir qatorda bolalarning ijtimoiy-psixologik holatini, muloqotga kirishish ko‘nikmasini ham rivojlantiradi. Shunday qilib, olib borilgan tahlillar va kuzatuvlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagи bolalarda logopedik o‘qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish nafaqat ta’limning samaradorligini oshiradi, balki bola shaxsining individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishda ham muhim omil sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy interaktiv vositalar – xususan, multimedya texnologiyalari, mobil ilovalar, sensorli qurilmalar, gamifikatsiya elementlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan logopedik mashg‘ulotlar orqali bolalarning nutqiy faolligi, diqqat-e’tibori, eslab qolish darajasi va kommunikativ qobiliyatları sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

Ayni paytda innovatsion texnologiyalarni logopedik faoliyatga tadbiq etishning muvaffaqiyati, avvalo, pedagogning metodik tayyorgarligi, texnologik savodxonligi, shuningdek, bolaning psixofiziologik holatini chuqur tahlil qila olish qobiliyatiga bog‘liqdir. Shuningdek, ta’lim jarayonida bolalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan individual yondashuvlar va raqamli resurslar asosida tuzilgan moslashtirilgan mashg‘ulotlar samarali natijalarga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Demak, bugungi kun logopediya amaliyotida an’anaviy va innovatsion yondashuvlar integratsiyasi orqali pedagogik faoliyatni qayta ko‘zdan kechirish, metodik vositalarni yangilash va bolaning shaxsiy imkoniyatlariga asoslangan rivojlantiruvchi muhitni yaratish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda. Bu esa nafaqat nutqiy buzilishlarning oldini olish, balki maktabgacha ta’lim tizimining zamonaviy talablarga javob berishini ta’minalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarova Aziza Baxtiyorovna “Logopediya fanining maqsad va vazifalari hamda yosh avlod tarbiyasida logopedlarning o‘rni” Manba: Eng yaxshi xizmatlari uchun jurnali, 2023-yil, №6, 441–443-betlar
2. Nodira Aripova “Logopediya asoslari” Innovatsion yondashuvlar va individual metodlar. 45-67 bet
3. Mamatqulova M. (2020). Zamonaviy logopediya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi. Ivanova M.P. (2020). Logopediya darslarida multimediali texnologiyalar. Moskva: Pedagogika nashriyoti. 75-92
4. Bazarova N.B. (2019). Logopedik diagnostika va individual yondashuv. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Sadrina T.H. (2022). Innovatsion yondashuvlar logopediyada: nazariya va amaliyot. Qozon: Psixologiya va defektologiya markazi.
6. Solieva M. (2021). Maktabgacha ta’limda o‘yinli logopedik mashg‘ulotlar metodikasi. Samarqand: Ilm ziyo.

7. Vlasova V.I. (2019). Logopedik amaliyotda AKT vositalaridan foydalanish usullari. Sankt-Peterburg: Logos. 60-80
8. Rustamova N. (2021)"Nutqiy rivojlanishida sust bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodikasi". Toshkent.
9. Kurganova E.V. (2020). Multimediya asosidagi darslar logopediya tizimida. Moskva: Logopediya markazi. 40-52
- 10 "Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion rivojlanish yo‘llari" konsepsiyasidan, renessans-edu.uz, 2023
11. Begmuradovich, S. A. (2023). INTEGRATION OF EDUCATIONAL PROCESS FORMS. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQI-QOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH, 2(2), 2023.
12. Tursunov, A. (2024). ADVANCEMENTS IN MECHATRONIC SYSTEMS FOR DUST PARTICLE CONCENTRATION CONTROL IN COTTON PROCESSING ENTERPRISES. International Boletin on Mechanical, Civil and Industrial Engineering, 3, 1-3.
13. Tursunov, A. (2024). ALGORITHM OF DATA PREPARATION FOR CREATION OF CURRENT BPMN MODEL OF ADMINISTRATIVE AND AUXILIARY PROCESSES OF TELECOMMUNICATION ORGANIZATIONS MANAGEMENT. JOURNAL OF LAW AND ECONOMICS, 7(4), 1-6.
14. Tursunov, A. (2024). JOURNALISM AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI). Worldwide Cross-Disciplinary Research, 1(1).